

**ADVOKAT MAQOMINI TO'XTATIB TURISH VA TUGATISH
TUSHUNCHASI, AHAMIYATI VA UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Choriyeva Umida Qorjov qizi.

Magistratura bosqich tinglovchisi

Toshkent davlat yuridik universiteti.

Toshkent O'zbekiston.

E-mail: umidachoriyeva036@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada advokat maqomini to'xtatib turish va tugatish tushunchalari, ularning huquqiy asosi, ijtimoiy va kasbiy ahamiyati hamda amaliyotdagi o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Advokatning kasbiy faoliyatiga oid qonun va etik me'yorlarga rioya qilinmagan taqdirda qo'llaniladigan ushbu choralarda adolatli sudlov tizimini mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish hamda advokatura obro'sini saqlashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, maqolada bu jarayonlarning vaqtinchalik (to'xtatib turish) va doimiy (tugatish) shakllari hamda ularni qo'llash shartlari huquqiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlari: *Advokat maqomi, advokatlik faoliyati, maqomni to'xtatib turish, malaka komissiyasi, litsenziyani to'xtatib turish*

**ПОНЯТИЕ, ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ
ПРИОСТАНОВЛЕНИЯ И ПРЕКРАЩЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА**

Чориева Умида Коржов кизи

студент магистратуры Ташкентский

государственный юридический

университет Ташкент, Узбекистан.

E-mail: umidachoriyeva036@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятия приостановления и прекращения статуса адвоката, их правовые основания, социальное и профессиональное значение, а также особенности применения в юридической практике. Меры ответственности, применяемые к*

адвокатам за нарушение законодательства и профессиональной этики, играют важную роль в укреплении системы справедливого правосудия, защите прав и интересов граждан, а также сохранении авторитета адвокатуры. В статье также анализируются различия между временным приостановлением и окончательным прекращением статуса адвоката.

Ключевые слова: Статус адвоката, адвокатская деятельность, приостановление статуса адвоката, квалификационная комиссия, приостановление действия лицензии.

THE CONCEPT, SIGNIFICANCE, AND SPECIFIC FEATURES OF SUSPENSION AND TERMINATION OF ADVOCATE STATUS

Choriyeva Umida Qorjov qizi

Master's student Tashkent State
University of Law Tashkent,
Uzbekistan

E-mail: umidachoriyeva036@gmail.com

Abstract: This article explores the concepts of suspension and termination of advocate status, their legal foundations, social and professional significance, and key characteristics in legal practice. Disciplinary measures applied to advocates who violate legal or ethical norms serve to reinforce the integrity of the justice system, protect the rights and interests of clients, and preserve the reputation of the legal profession. The article also provides a legal analysis of the distinctions between temporary suspension and permanent termination of advocate status, including the conditions under which each is applied.

Key words: Status of a Lawyer, Legal Activity of a Lawyer, Suspension of Status, Qualification Commission, Suspension of License.

Navbatdagi masala, advokat tushunchasiga aniqlik kiritishdan oldin advokat tushunchasi tarixiga qisqacha to'xtalish hisoblanadi. Advokat tushunchasi qadimgi Rimda paydo bo'lgan hisoblanadi. Rus huquqshunos va tarixchisi E.V.Vaskovskiy ta'kidlaganidek, Rimdagi birinchi advokatlar patronlar (Rim huquqida Rim fuqarolik va siyosiy jamiyatning to'liq bo'lmagan a'zolariga, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak mijozlarga homiylik va himoyani ko'rsatgan fuqarolar) deb nomlangan. Mijozlar uchun patronlar patritsiylar (Rimning tub aholisi shunday nomlangan) hisoblangan va ular bilan mijozlar qaram munosabatlarga kirishgan. Ozod qilinganlar uchun himoya ularni ozod qilgan shaxs edi. Maxsus xizmatchi (nomenklator) mijozlar bilan ko'plab munosabatlarni saqlashga yordam bergan. Ularda ikkita kasb yuridik maslahatchilar va advokatlar birlashtirilgan. Uzoq vaqt davomida advokat xizmatlarini ko'pincha huquq bo'yicha mutaxassis bo'lmagan notiqalar bajargan. Qadimgi Rimda respublika davrida advokatlik kasbi erkin bo'lib, hech qanday korporativ tuzilmaga ega bo'lmagan. Professional advokatlar korporatsiyasi miloddan avvalgi Rimda imperiya davrida shakllangan. Hujjatlashtirilgan advokatlar kolleji keyingi davrlarda ma'lum bo'lgan prinsiplar asosida shakllantirildi: ular matrikulaga (ma'lum bir daromad doirasiga ega bo'lgan shaxslarning rasmiy ro'yxati) kiritilishi va huquqshunoslik bo'yicha testlardan (imtihonlardan) muvafaqiyatli o'tishi kerak edi. Bu hozirgi zamongacha advokatlik kasbining keyingi barcha o'zgarishlari uchun asos bo'ldi deb hisoblasak ham bo'ladi¹.

“Advokat” atamasi birinchi marotaba 18-asrning boshlarida tomonlar vakillariga nisbatan qo'llanila boshlangan. Bu Pyotr I ning “Harbiy Nizom-

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%90%D0%B4%D0%B2%D0%BE%D0%BA%D0%B0%D1%82>
SJIF: 5.051

jarayonlari” asarida advokat tushunchasiga to’xtalgan bo’lsada, imperator bu kasbning ahamiyatini ko’rmagan va advokatlar o’zlarining uzundan uzun dalillari bilan sudyani ko’proq bezovta qiladilar va bu ish tezkor xulosaga emas, balki faqat kengroq joyga olib ketadi”² deb ta’kidlaganlar. O’zbekiston tarixiga ham bir nazar soladigan bo’lsak, birinchi bo’lib, 1879-yilda Qo’qon shahrida, yuridik ta’limni Sankt-Peterburgda olgan Abdunabi Qurolboy tashabbusi bilan “Himoyachilar filiali” nomi bilan tashkil etilgan advokatura o’zini o’zi boshqaruv tuzilmasi sifatida O’zbekiston hududida birinchi o’zbek advokaturasi bo’lgan³. Keyinchalik esa Buxoroda 1915-yildan boshlab Turkiya va Rossiya xududlarida advokatlik faoliyatini o’rgangan Valixon Xo’ja tomonidan tashkil etilgan Ko’ngillik yuristlar bo’limi ham faoliyatini boshlagan⁴.

Navbatdagi masala advokat tushunchasi nima ekanligini ko’rib chiqish hisoblanadi. Advokat so’zi lotincha advocatus – advoco – “taklif qilaman” degan ma’noni bildiradi va kasbi jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko’rsatish, shu jumladan ularning huquqlarini himoya qilish, manfaatlarini ifodalash bo’lgan va belgilangan tartibda advokat maqomiga ega bo’lgan shaxs hisoblanadi. O’zbek tilining izohli lug’atida advokat tushunchasi (lotin tilida “advocatus” “advocare”–yordamga chiqish) ma’nosini bildiradi va sudda unga ishonch bildirgan shahsga huquqiy yordam (maslahat) beruvchi, javobgar (aybdor)ni himoya qiluvchi yurist; oqlovchi, himoyachi” degan ma’nolarni angalatadi⁵. Ba’zi olimlar esa u yuridik masalalar bo’yicha mustaqil professional maslahatchi deb ham ta’rif berilgan.

² https://moeobrazovanie.ru/istoriya_professii_advokata.html

³ Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU, 2019. - B. 40

⁴ O’zbekiston Respublikasida advokatura: Darslik, bakalavriat talabalari uchun: 2 jildda; 1-nashr;

⁵ O’zbek tilining izohli lug’ati: 80000 ga yaqin so’z va so’z birikmasi J.I. A-D / Ma’sul muharrir A. Madvaliyev. - T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. - B.39.

S.L.Ariyaning fikricha “advokat sudlangan shaxs uchun haqiqiy adolat timsoli, ularsiz hayotni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi, umuman olganda, ular shu bilan hayotini saqlab qoladi” deb ta’kidlagan⁶.

Rossiyalik huquqshunos, yuridik fanlar doktori, professor, Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, uchinchi darajali davlat adliya maslahatchisi A.D.Boykovning ta’kidlashicha⁷ “advokat” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, ikki xil ma’noni anglatadi, xususan birinchidan “sudda himoyachi va sud ishlarida ishonchli vakil”, ikkinchidan “og‘zaki yoki yozma ravishda kimningdir yoki shaxsning nimasidir himoyasi uchun chiquvchi shaxs”.

Yuridik fanlar nomzodi, professor O.V.Sineokiyni fikriga ko‘ra⁸, advokat kasb, himoyachi esa sudda kimningdir manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq faoliyatdir.

Professor M.B.Smolenskiyni ta’kidlashicha⁹ “advokat tergov va sud jarayoning barcha bosqichlarida ayblanuvchini, jabrlanuvchini himoya qilish, maslahatlar, tavsiyalar yuborish orqali professional yuridik yordam ko‘rsatuvchi yurist” hisoblanadi.

F.Fayzullaevaning fikricha¹⁰ “Advokat bu huquqiy masalalar bo‘yicha mustaqil professional maslahatchi hisoblanadi”. Uning fikriga ko‘ra, ayrim davlatlarda yurist bilan advokat bitta kasb egalari hisoblanadi ya’ni yurist deganda advokat ham tushuniladi. Shu bilan birga, tadqiqotchi D.M.Choriyeva¹¹ ham o‘z

⁶ S.L.Ariya Jizn advokata B. 13

⁷ Boykov A.D.,Kapinus N.I. Advokatura Rossi: Uchebnoye posobiye.-M.:IMiP, 2000. -S. 138

⁸ Sineokiy O.V. Advokatura kak institut pravovoy pomoo‘i i zao‘itq: Uchebnoye posobiye / O.V Sineokiy.-X.: Pravo,2008.-C 16-177

⁹ Smolenskiy M.B. Advokatskaya deyatelnost i advokatura RF.-Rostov-na-Donu.”Feniks”.2004. C .256

¹⁰ Fayzullayeva.F Advokatlar mavqei pastligining sababi protsessual tengsizlikda borib taqaladi // Advokat. 2020 й. , № 6., -Б. 6-10.

¹¹ Choriyeva D.M Ishni sudga qadar yuritishda himoyachi huquqlarini kengayrish masalari Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.-T.:TDYU,2021.-Б. 20-22

fikrlarini bayon qilgan, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ilmiy tadqiqot ishida "himoyachi" va "advokat" tushunchalarini o'rgangan.

Professor A.M.Vasilevning fikriga¹² ko'ra "advokat qonuniylikni ta'minlaydigan hamda insonlarni huquqlarini ximoya qiladigan, shuningdek qonun buzilishini va nohaqlikni oldini oladigan shaxs".

Huquqshunos A.V.Kosov ta'kidlashicha advokat kasbi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi insonlar emas¹³.

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning va tadqiqotchilarning fikrlarini umumiy qilib bitta yaxlit ta'rif yaratadigan bo'lsak, advokatlik kasbi ya'ni faoliyati – bu maxsus yuridik faoliyat hisoblanib, jismoniy va yuridik shaxslarga yordam berishga qaratilgan. Yordam deganda huquq sohasida maslahatlar berish, ularning manfaatlarini ximoya qilish maqsadida sudda ularning ishonchli vakili sifatida himoya qilish tushuniladi.

Olimlarning ba'zilar advokat tushunchasini yurist va boshqalari advokat deb tushunishini yuqoridagi tahlillar asosida aniqladik. Ushbu qarashlarga ham qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, yurist va advokat kasblari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Yurist har qanday darajadagi oliy yuridik ma'lumotga ega mutaxassis hisoblanadi. Yuristik bu kasb emas mutaxassislikdir. Advokatlik esa bu yurist kasbidir.

Advokat bu alohida maqomga ega yuristlardir. Har bir advokat yurist, lekin har bir yurist advokat hisoblanmaydi¹⁴. Yuridik mutaxassislik bo'yicha universitet yoki texnikumni tugatgandan so'ng yurist bo'lishingiz mumkin.

¹² Pravovie osnovi ukrepleniya Rossiskoy Gosudarstvennosti: Sbornik stati po itogom Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii (Orenburg, 04 noyabr 2017), - Sterlitamak: AMI, 2017. C-158.

¹³ <https://raa.ru/wpcontent/uploads/2022/06/%D0%BC%D0%B0%D0%BA%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%B2.pdf>

¹⁴ <https://astobr.com/articles/advokat-ili-yurist-v-chem-raznitsa/>

Advokat bo'lish uchun esa oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishingiz va qonunlarda ko'rsatilgan talablar doirasida malaka imtixonini topshirib litsenziya olgan bo'lishingiz shart. Shuningdek, sudlarda ishtrok etishda ham bir qancha farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Advokat maqomi jinoyat protsessida mijozni himoya qilish imkonini beradi. Yuristlar yuridik firmada ish beruvchi tomonidan tekshiriladi. Advokatlik faoliyati esa advokatlar palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak huquqshunoslik sohasida diplomni olgan oliy ma'lumotga ega shaxs yurist bo'lishi mumkin. Lekin advokat sifatida faqat oliy yuridik ma'lumotga ega va qonun hujjatlarda belgilangan tartibda malaka imtixonini topshirib, litsenziya olib, advokatlik maqomini olgan shaxs advokat hisoblanadi.

Lekin AQSHda sud jarayoni davomida bevosita ishtrok etdigan amaliyotchi yuristlar "sud advokatlari" (trial-attorneys, counsels), aksincha, sud yo'llarida ishtrok etmaydigan yuristlar esa oddiygina "yuristlar" nomi bilan ataladi¹⁵.

Bu borada V.Davlatov ham AQSHda advokat va yurist tushunchalari bir xil ekanligini ta'kidlab uning o'zlarining huquqiy ilmiy ishlarida asoslantirganlar¹⁶.

Keyingi masala, advokatlik maqomi tushunchasini mazmun mohiyatini ko'rib chiqish hisoblanadi. Advokatlik maqomiga ega bo'lish advokat maqomi atamasining tarkibiy tuzilishi hisoblanadi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak advokatning huquq va majburiyatlarini vujudga kelishiga olib keladi. U davlat

¹⁵ Yunusov X. AQSHda yuridik xizmat bozori, yuridik faoliyat yo'nalishlari va advokatlik litsenziyasi // Advokat. 2021. №5. –B. 25-28

¹⁶ Davlatov V. Xorijiy mamlakatlarda advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomi // Advokat. 2020 й., №3. –B. 18-20

tomonidan tan olingan va qonunchilik tartibida kafolatlanadigan huquq, erkinlik va majburiyatlarni, shuningdek qonuniy manfaatlarni keltirib chiqaradi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ijtimoiy imkoniyatlarni, davlatning uning xatti-harakatiga nisbatan ijtimoiy imkoniyatlarni yaratib beradi. Shunga ahamiyat qaratish kerakki, advokatlik maqomiga erishish uchun inson avvalo yuqori professional darajaga ega bo'lishi kerak. Chunki ular fuqarolarning, jamiyatning va davlatning huquqlarini himoya qiladi. Bizning davlatimizda advokatlarning maqomi, faoliyati, vakolatlari va kompetensiyasi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi¹⁷.

Advokat maqomiga ega bo'lish uchun talabgor shaxslarga quyidagi talablar belgilangan:

- ✓ oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish;
- ✓ advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan bo'lish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lish. Bunda, fuqaroligi bo'lmagan shaxs va chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasi hududida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas;

Mamlakatimizda quyidagilar advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emasligi belgilangan:

- ✓ belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs;
- ✓ sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi
SJIF: 5.051

Shuningdek advokatlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan talabgor quyidagilardirdan tashqari haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas:

- ilmiy va pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi (bundan buyon matnda Advokatlar palatasi deb yuritiladi) va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat;
- patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat;
- shartnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat;
- hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida (sudlarida) sudya sifatidagi faoliyat.

Hamda aynan fuqarolik va iqtisodiy sudlarda ham ishlashi mumkin emas, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak sud boshqaruvchisi sifatida belgilangan tartibda fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritishni amalga oshirish bo'yicha litsenziya olgan advokatlar.

Talablar yuqoridagi talablarga javob berganidan keyin advokatlik maqomiga ega bo'lish uchun bir qancha imtihonlardan o'tishi lozim. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 9-yanvarda qonuniy kuchga kirgan "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, advokat maqomiga ega bo'lish uchun litsenziya Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida beriladi. Litsenziya olish uchun advokatlik maqomiga talabgor shaxs advokatlik tuzilmasida ya'ni advokatlik byurosi (belgilangan tartibda advokatlik

litsenziyasini olgan shaxs tomonidan yakka tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ta'sis etilgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan advokatlik tuzilmasi)da, advokatlik firmasi (advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan ikki yoki undan ortiq sheriklar tomonidan ta'sis etiladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan advokatlik tuzilmasi)da, advokatlar hay'atida (ikki va undan ortiq advokat a'zoligiga asoslanib ta'sis etilgan, Ustavga asosan faoliyat yurituvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, advokatlik tuzilmasi)da belgilangan tartib va muddatda stajirovga o'tashi lozim.

Advokatlik byurosida advokat o'z kasbiy faoliyatini yakka tartibda amalga oshiradi. Advokatlik byurosi boshqa advokatni ishga qabul qilishi mumkin emas. Advokatlik firmasi ta'sischilar tomonidan ularning arizasiga asosan tashkil etiladi va tegishli adliya organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng yuridik shaxs maqomini oladi. Advokatlik firmasi ta'sischilari huquqiy munosabatlarning muayyan yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashgan, iqtidorli advokatlarni o'zida birlashtirish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi¹⁸.

Advokatlar malaka imtihoni olish tartibi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hay'ati va O'zbekiston Advokatlar Assotsiatsiyasi Boshqaruvi yig'ilishining 1997-yil 13-martda "Advokatlar malaka komissiyasi" va "Advokatlar Oliy malaka komissiyasi to'g'risida"gi qo'shma qarori bilan tasdiqlangan Nizomlarda belgilangan. Bunda davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lgan shaxs advokatlik

¹⁸ GILDE.UZ Yuridik ensiklopediya.
SJIF: 5.051

tuzilmasida stajirovkadan o'tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli ekanligi ham belgilab o'tilgan. Malaka imtihonini topshira olmagan shaxs uni takror topshirishga ruxsat beriladi. Imtixonidan o'tgan shaxs esa litsenziyani (qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi maxsus ruxsatnoma) olgan kundan advokat maqomiga ega bo'ladi¹⁹.

Advokatlik litsenziyasiga talabgor malaka imtihonini topshirgandan so'ng tegishli malaka komissiyasining qaroriga asosan adliya organi tomonidan beriladi. Advokatlik litsenziyasini olgan shaxs O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida ko'rsatilgan faoliyatni olib borish huquqiga ega bo'ladi. Litsenziyalash tartibi esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan nizomga asosan amalga oshiriladi. Uch oy davomida tegishli adliya organiga murojaat qilib litsenziya olgan talabgar yana uch oy ichida advokatlik qasamyodini (Konstitusiya va Qonunlarga qa'tiy rioya qilish, advokatlik sirini saqlash, mijozning haq-huquqlarini himoya qilish va advokatlik burchini sidqidildan bajarish to'g'risidagi advokatlik qasamyodi) qabul qilishi mumkin. Advokatlik qasamyodi malaka imtihonini muvafaqqiyatli topshirgan shaxs tomonidan advokatlik litsenziyasini olish paytida tantanali ravishda malaka komissiyasi oldida beriladi. Advokatlik guvohnomasi esa talabgor advokatlik faoliyatiga kirgan yoki advokatlik tuzilmasi ro'yxatdan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tegishli adliya organiga olingan vaqtdan boshlab ikki ish kuni chida beriladi. Advokatlik guvohnomasini olgan talabgor advokatlik maqomini olgan hisoblanadi va tegishli adliya organi bu haqda tegishli advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga 3 kunlik muddat ichida xabardor qilishi

¹⁹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son
SJIF: 5.051

lozim. Ushbu xabarnomani olgan advokat Advokatlar palatasining a'zosi hisoblanadi. Guvohnomasining shakli va tuzilishi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining nizomiga asosan belgilanadi. Yuqoridagi talablarga javob berib intixonlardan o'tib, guvohnoma olgandan so'ng advokatlik maqomiga ega bo'lish mumkin.

Shuningdek, so'ngi yillarda advokat faoliyatini to'xtatib turish va tugatish muammosi o'zining turli jihatlar bilan tadqiqotchilarning diqqat-e'tiboriga sazovor bo'ldi. Buning sababi shundaki, davlatimizda Qonun ustuvorligini ta'minlashda eng muhim o'rin o'zining butun tarixi davomida jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan asosiy maqsadini amalga oshirib kelgan advokaturaga tegishli hisoblanadi. Shuning uchun diplom ishi mavzusining dolzarbligi davlat oldida demokratiyani rivojlantirish va Qonun ustuvorligini taqqoslash vazifasini hal qilish bilan belgilanadi.

Advokatlik kasbi o'zining butun tarixi davomida inson huquqlarini himoya qilish, Qonunlarni amalga oshirish zarurligi va hokimiyatni suiste'mol qilishga qarshi turishda birinchi o'rinda bo'lgan. M.M.Vinavera²⁰ning fikriga ko'ra, "advokat o'z burchini ijrosini amalga oshiradi, Qonunni himoya qiladi, ushbu Qonun doirasida kurashadi, tamoyillarga qat'iy tayanadi, advokat himoya qilayotgan vaqtida o'z advokatlik prinsiplariga asoslanadi" deb ta'kidlagan. Yuqoridagi vazifalar uchun advokat faqat yuqori professional darajaga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, advokatning professional kasbiy idealari, kasbiy qadriyatlari axloqiy tizimiga ega bo'lishi muhimdir.

Advokatura to'g'risidagi Qonunlarga muvofiq "Advokat - bu advokatura to'g'risidagi Qonun bilan belgilangan tartibda advokat maqomini olgan va

²⁰ Винавер М.М. Адвокатура и правовое государство // Право: Еженедельная юридическая газета. 1905. № 13
SJIF: 5.051

advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan shaxs". Advokat maqomi berilgan paytdan boshlab shaxs amaldagi Qonun hujjatlarida belgilangan majburiyat va huquqlarga ega bo'ladi. Majburiyatlarni bajarish imkoni bo'lmaganda yoki belgilangan majburiyatlar bajarilmaganda, advokatning maqomi to'xtatilishi yoki tugatilishi mumkin.

Advokatlik maqomiga ega bo'lgandan so'ng Konstitutsiya va advokatura institutiga tegishli bo'lgan Qonun xujjatlarda hamda boshqa Qonun xujjatlarda belgilab o'tilgan talab doirasida huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Biroq, bu maqom to'xtatilishi yoki ma'lum sabablarga ko'ra yo'qotilishi mumkin.

Navbatdagi masala bizning asosiy mavzu doiramizni tahlil qilish hisoblanadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, advokatlik maqomini to'xtatib turish va tugatish doirasini takomillashtirish doirasini keng tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi navbatda "to'xtatish" atamasi yuridik ensklopediyalar va xorij davlatlarining lug'atlari orqali mazmumini ochish maqsadga muvofiq. To'xtatib turish atamasi huquqshunoslik sohasida keng qo'llaniladi. Ko'pincha ushbu atama muayyan xodisa dolzarbligini ta'kidlash uchun ishlatiladi. Masalan, advokatlik maqomini to'xtatib turishning qonuniy ta'rifi yo'qligiga e'tibor qaratish lozim. Umumiy nazariya xususiyatlarini olish uchun induktiv tadqiqot usulini qo'llash kerak. To'xtatib turish sodir bo'lgan voqea sifatida emas, balki yuridik ahamiyatga ega bo'lgan jarayonning davomiyligi sifatida tavsiflaydi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak uning davomiyligini tavsiflaydi. Misol tariqasida maratoriyni keltiramiz.

"Huqiqiy lug'at"ga murojaat qiladigan bo'lsak, maratoriy - "bu davlatning o'z majburiyatini, xususan xalqaro shartnomalar bo'yicha, tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda xodisalarda qoida tariqasida ma'lum muddatga yoki urush

tugaguniga qadar bajarilishini kechiktirish hisoblanadi. Shuningdek bitta qiziqarli qo'shimcha berilgan bo'lib, barcha majburiyatlarga (umumiy maratoriy) yoki ularning ayrimlariiga nisbatan qo'llaniladi va maratoriy atamasini ko'pincha davlatning biror bir chora ko'rishidan bosh tortishi tushuniladi. (Masalan, yadroviy sinovlar maratoriysi). To'xtatish atamasi birinchi navbatda har doim to'xtatuvchi xususiyatga ega ekanligini anglatmaydi, u mavjud huquqiy munosabatlardagi "muzlatish"ga qaratilgan. To'xtatib turishni tugatish bilan aralashtirish mutlaqo nojoiz. "tugatish"dan farqli o'laroq, "to'xtatib turish" huquqiy munosabatlarning yakuniy to'xtalishiga olib kelmaydi, faqat ularning davom etishini vaqtincha kechiktiradi. Bu xususiyat birinchi navbatda huquqiy munosabatlarda huquqiy tartibga solish vositasi hisoblanadi. To'xtatib turishning asosiy maqsadi subyektnng huquqiy holatiga ta'sir qilishdir yoki yuridik ahamiyatga molik oqiatlariga erishish hisonlanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "to'xtatib turish" bilan tugatishning farqi bo'lib "to'xtatib turish" yakuniy fakt emas, u har doim aniq belgilangan muddatga qo'yiladi. Tugatish esa yakun xisoblanadi munosabatlarning.

O'zbek tili izohli lug'atida to'xtatib turish - davom etmay qo'ymoq, davomdan qolmoq, o'z ishini, faoliyatini bas qilmoq, yurmay ishlamay qolmoq, ish faoliyati, harakatida uzilish qilmoq degan ma'nolarni angalatadi.²¹ Tugatish-oxirgi, nihoyasiga temoq, tamom bo'lmoq, yakun bo'lmoq, biron natija bilan yakunlanmoq, barham topmoq degan ma'nolarni angalatadi.²²

Ingliz tili izohli lug'atida to'xtatib turish degani "suspension" deb tarjima qilinib, to'xtatib turish ish joyini tekshirish uchun ish beruvchining buyrug'iga

²¹ https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf B. 249

²² https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf B.175

binoan yoki kompaniya siyosatini buzganlik uchun intizomiy jazo chorasi sifatida ish joyidan to‘langan yoki to‘lanmagan vaqtdir.²³ Bu, shuningdek, maktabdan vaqtincha chetlatishdir degan ma’noni anglatadi. Tugatish degani “finish” deb tarjima qilinib, tugatmoq, tugatish, bitkazmoq, bitmoq, bitirmoq, poyoniga yetmoq, barham topmoq, yakun topmoq ma’nolarni anglatadi.²⁴

Rus tili izohli lug‘atida to‘xtatib turish “ priostanovlenie” deb tarjima qilinib ma’lum muddatga to‘xtatib turish, to‘xtatib turish ma’nosini anglatadi.²⁵ Tugatish ”zakonchit” deb tarjima qilinib tugatish yakunlash degan ma’noni anglatadi.²⁶

Keyingi masala advokatlik maqomini to‘xtatib turish tushunchasini mazmun mohiyati hisoblanadi. Advokatlik maqomini to‘xtatib turish deganda advokatlik maqomi berilgan shaxs ma’lum muddatga advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyatini yo‘qotadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak shaxsga advokatlik maqomi berilgan vaqtdan boshlab amaldagi Qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlar va huquqlar vujudga keladi. Advokatlik maqomi doirasida bajarilmagan yoki bajarish imkoni bo‘lmagan taqdirda, advokatning maqomi Qonun xujjatlarda belgilangan tartibga asosan to‘xtatiladi yoki tugatiladi. Advokatlik maqomini to‘xtatib turish muayyan muddatni nazarda tutadi, ya’ni advokatlik maqomini olgan shaxsga tegishli bo‘lgan huquqlardan va xujjatlardan foydalana olmaydi. Advokat maqomi to‘xtatilgan taqdirda, Qonun hujjatlarda belgilangan, ular faoliyatning mustaqilligini hamda advokat oldiga qo‘yilgan

²³ [https://en.wikipedia.org/wiki/Suspension_\(punishment\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Suspension_(punishment))

²⁴ [https://en.wikipedia.org/wiki/finish_\(ended\)](https://en.wikipedia.org/wiki/finish_(ended))

²⁵ <https://ru.wiktionary.org/wiki/%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%82%D1%8C>

²⁶ <https://ru.wiktionary.org/wiki/%D0%BF%D1%80%D0%B8%D0%BE%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%82%D1%8C>

maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan kafolatlar ham to'xtatiladi²⁷.

Shunday qilib, eng muhim masalalaridan biri shundaki, advokatlik maqomi to'xtatilgandan keyin ham fuqaro advokatning kasbiy axloq normalariga rioya qilishi shart.

Shunday qilib, advokat maqomini to'xtatib turish keng ko'lamli qoidalar ostida bo'lib, bu fuqaroga uning maqomini tugatishdan ko'ra, ma'lum holatlar tufayli ruxsat beriladi.

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonimizda advokatlik maqomini to'xtatib turish 3 turga bo'linishi aniqladik, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak:

1) Qonun chiqaruvchi faqat litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishi uchun asoslarni belgilab beradi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak maqomni to'xtatishga olib kelmaydi faqat litsenziya to'xtatilib va unga sabab bo'lgan asoslar ko'rsatiladi. Masalan, fuqarolik ishlari bo'yicha litsensiya to'xtatilgan bo'lsa, faqat ushbu ishlarda ma'lum bir muddat qatnasha olmaydi;

2) Ba'zi mamalakatlarda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaning amal qilishni to'xtatib turish boshqa asoslar qatori advokatlik faoliyatini to'xtatib turish uchun ham asos bo'ladi, yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak bunda butun bir tizim to'xtaydi. Fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sudlarda ham advokatlik faoliyatini olib bora olmaydi;

3) lekin ba'zi davlatlarda advokat maqomini olish uchun litsenziya olishning hojati yo'q, shuning uchun ham maqomni to'xtatib turish uchun asoslar qonuniy ravishda belgilanadi, ular orasida litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish uchun asos sifatida ajratilmaydi.

²⁷ Matmurotov A.R O'zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo'lish tartibini takomillashtirish masalari. Monografiya Toshkent 2022-yil -B. 12
SJIF: 5.051

Yuqoridagilarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, bizning davlatimizda advokat maqomi to'xtatilishining 2-turiga kiramiz. Davlatimizda agar advokatlik maqomi to'xtatilsa, butunlay tizimda to'xtatiladi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak bizning davlatimiz sohaga oid Qonunchiligiga muvofiq, advokatlar litsenziyasi to'xtatilsa, u hech qanday advokatlik harakatlarini bajara olmaydi, qachonki to'xtatilish asosi yechilib olinganidan keyingina u qaytadan tiklanishi mumkinligi belgilab o'tilgan.

Keyingi masala advokatlik litsenziyasini tugatish tushunchasini mazmun mohiyati hisoblanadi. Advokatlik litsenziyasini tugatish (maqomini tugatish) deganda bu advokatga davlat tomonidan berilgan huquqiy faoliyat yuritish (advokatlik faoliyati) uchun ruxsatnoma - litsenziyaning bekor qilinishi yoki advokatning o'z xohishi bilan litsenziyasini bekor qilish jarayonidir. Bu jarayon natijasida advokat endi qonuniy ravishda yurisdiksiya doirasida yuridik yordam ko'rsatish va advokatlik faoliyatini olib borish huquqiga ega bo'lmaydi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak advokat qonuniy asosda yuridik xizmatlar ko'rsatish huquqidan mahrum bo'ladi, advokatga berilgan barcha huquqlardan foydalanishdan mahrum bo'ladi hamda majburiyatlar ham tugatiladi, litsenziya bekor qilingach, advokat o'z faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi, advokatlik faoliyatining davom ettirilishi uchun yangi litsenziya olish talab qilinadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak advokatlik litsenziyasini tugatish — bu litsenziyaga ega shaxsning advokatlik faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan huquqining bekor qilinishi yoki vaqtincha to'xtatilishi natijasida uning litsenziyasining yuridik kuchini yo'qotishidir. O'zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyati to'g'risida”gi qonuni (2023) 16-moddasida litsenziyani tugatish uchun aniq huquqiy asoslar belgilangan. Ular orasida quyidagilar muhim sanaladi:

Litsenziyani olish uchun belgilangan talablarga javob bermaslik yoki litsenziya berish jarayonida soxta hujjatlardan foydalanish. Advokatning kasbiy va etik majburiyatlarini buzishi, shu jumladan advokatlik siri, qasamyod va kasbiy odob-ahloq normalariga zid harakatlari. Sud tomonidan jinoyatda aybdor deb topilishi yoki litsenziyaning amal qilishi to'xtatilgan holatlarni belgilangan muddatda bartaraf etmaslik. O'zbekiston fuqaroligidan chiqish yoki boshqa qonuniy sabablar. Advokatlik litsenziyasini tugatish shaxsning kasbiy maqomining yo'qotilishi bilan birga jamiyatda huquqiy yordam ko'rsatish tizimiga ham ta'sir qiladi. Adolatli sudlov va huquqiy yordamning samarali amalga oshirilishi advokatlar faoliyatiga bog'liq. Shuning uchun litsenziyani to'g'ri va qonun asosida tugatish ijtimoiy manfaatlar himoyasiga xizmat qiladi. Advokatlik litsenziyasini tugatish — huquqiy tizimning muhim instituti bo'lib, u kasbiy mas'uliyat, etika va qonuniylik printsiplariga asoslanadi. Litsenziya tugatish qonuniy asoslarga mos ravishda amalga oshirilishi lozim va advokatlik faoliyatining yuqori sifatini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu tariqa, litsenziya tugatilishi huquqiy faoliyatda shaffoflik va adolatni saqlashga xizmat qiladi²⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi 349-I-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son

²⁸ <https://drive.google.com/file/d/1Ejnl7PKNmETdneKOdRJytoFwQuVvZ7Bc/view>
SJIF: 5.051

3. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi 721-I-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son;

4. A.R.Matmurotov. O‘zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo‘lish tartibini takomillashtirish masalalari. // Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. –T.: TDYU, 2023. –B. 148

INTERNET SAHIFALARI:

1. www.lex.uz
2. www.natlib.uz